

HOKIMIYAT ARXITEKTURASI: MAKIAVELLI QARASHLARIDA KUCH, IRODAVIY BOSHQARUV VA STRATEGIYA

Elov Farrukh Akmalovich
Lecturer of Political Science,
Asia International University
Email: elovfarrukh86@gmail.com
Tel: +998919751049

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20569800>

Abstract

Ushbu maqola Nikkolo Makiavellining siyosiy tafakkuridagi hokimiyat, strategiya va irodaviy boshqaruv tamoyillarini chuqur tahlil qiladi. Makiavellining “Hukmdor” asari asosida hokimiyat arxitekturasini konsepsiyasini yoritilib, kuchning davlat barqarorligini ta’minlashdagi o’rni, rahbarning siyosiy qaror qabul qilishdagi mahorati va strategik harakatlarning ahamiyatini yoritilgan. Maqolada Makiavellining siyosatga realistik yondashuvi, hokimiyatni mustahkamlash va jamiyatni boshqarish vositalari zamonaviy siyosiy tizimlar bilan solishtirma tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqola siyosiy barqarorlikni ta’minlashda kuch va irodaviy boshqaruvning uyg’unligi, shuningdek strategiyaning muhim roli haqida ilmiy-nazariy fikrlarni birlashtiradi.

Kalit soʻzlar: “Hukmdor” (II Principe), NATO, siyosiy realism, yollanma qoʻshinlar, avtoritar tizim, raqamli demokratiya, global maydon, gibrid urushlar, kiberzoʻravonlik, axborot urushi, zamonaviy PR siyosat.

Makiavelli (1469–1527) Yevropa siyosiy tafakkuri tarixida hokimiyatni boshqarishning eng amaliy, realistik tamoyillarini ishlab chiqqan mutafakkir sifatida tanilgan. Uning “Hukmdor” (II Principe) asari davlatning mustahkamligi qanday saqlanishi, hokimiyatning tabiati, rahbarning roliga doir tamoyillarni chuqur tahlil qiladi. Makiavelli uchun siyosat — bu maqsadga yoʻnaltirilgan, real manfaatlar ustuvor boʻlgan, kuch va strategiya bilan uyg’unlashgan faol jarayondir.

Nikkolo Makiavelli siyosiy realizmning asoschilaridan biri sifatida hokimiyatning barqarorligiga ta’sir qiluvchi uch muhim tayanchni — qoʻshin, xalq qoʻllab-quvvatlovi va qoʻrquvni alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, hokimiyatning yashovchanligi aynan shu omillarning toʻgʻri muvozanatiga bogʻliq boʻladi. Bugungi siyosiy tizimlar taraqqiyoti shuni koʻrsatadiki, Makiavelli ilgari surgan tamoyillar XXI asrda ham dolzarb boʻlib qolmoqda, faqat ularning mazmuni demokratik jarayonlar va global xavfsizlik meʼyorlari ta’sirida tubdan yangicha koʻrinish kasb etmoqda.

Makiavelliga koʻra, mustahkam va sodiq qoʻshin hokimiyatning eng asosiy tayanchi hisoblanadi. U yollanma qoʻshinlarni eng katta xavf deb bilgan, chunki ular manfaat ustuvor boʻlgan sharoitda xiyonat qilishga moyil boʻladi.

Bugungi davr siyosati nuqtayi nazaridan, qoʻshin tushunchasi ancha kengaygan, ya’ni harbiy kuchlar bilan birga kiberxavfsizlik, razvedka xizmatlari, hududiy xavfsizlik tizimlari, xalqaro harbiy ittifoqlar (masalan, NATO) ham davlat “kuchi”ning bir qismi sifatida qaraladi.

Demokratik davlatlarda harbiy kuchlardan hokimiyatni saqlash emas, milliy manfaatlarni himoya qilish, tashqi tahdidlarga qarshi barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy tartibni qoʻllab-quvvatlash vazifalari ustuvor. Avtoritar tizimlarda esa qoʻshin koʻpincha siyosiy hokimiyatning kafolati sifatida qabul qilinadi. Makiavellining fikricha, hukmdor xalqning ma’lum darajadagi

roziligini qozonmasa, hokimiyat uzoq yashamaydi. U shunday deydi: xalqning qo'llab-quvvatlovi hukmdor uchun qo'shimcha kuch emas, balki asosiydir.

Bugungi siyosiy tizimlarda bu g'oya yanada takomillashgan. Demokratik davlatlarda saylovlar, parlament tizimi, fuqarolar ishtiroki, jamoatchilik nazorati hokimiyat legitimligini ta'minlaydi. Ochiqlik, mas'uliyat, korrupsiyaga qarshi kurash — xalq qo'llovining zamonaviy indikatorlari. Shuningdek, raqamli demokratiya (onlayn petisiyalar, e-demokratiya, ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuv) qo'llab-quvvatlov mexanizmini kuchaytirgan.

Avtoritar davlatlarda esa qo'llab-quvvatlov ko'proq propaganda, siyosiy nazorat, mobilizatsion mexanizmlar orqali shakllantiriladi. Shu bois bu tizimlarda qo'llab-quvvatlov ko'pincha barqaror ko'rinsa-da, o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

Makiavelli “Hukmdor” asarida hukmdor uchun muhabbatdan ko'ra qo'rquv muhimroq, deb hisoblaydi. Uning fikricha, qo'rquv hokimiyatga itoatni kafolatlaydi, muhabbat esa o'zgaruvchan va ishonchsiz.

Zamonaviy siyosiy tizimlarda esa qo'rquv endi klassik ma'noda qo'llanilmaydi:

-Demokratik jamiyatlarda qo'rquv hukmronlik vositasi bo'la olmaydi, aksincha, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi qo'rquvni siyosiy jarayondan chiqarib tashlaydi.

-Huquqiy davlatlarda fuqarolarda qo'rquv emas, ishonch, qonun oldida tenglik va siyosiy barqarorlik ustuvor bo'ladi.

Biroq avtoritar tizimlarda Makiavellining qo'rquvga asoslangan modeli hanz qisqa muddatli barqarorlik manbai sifatida qo'llanadi. Unda siyosiy repressiyalar, so'z erkinligining cheklanishi, xavfsizlik xizmatlarining haddan tashqari kuchaytirilishi singari vositalar qo'rquv mexanizmini mustahkamlaydi. Ammo zamonaviy tajriba shuni ko'rsatadiki, qo'rquv asosidagi barqarorlik mo'rt va uzoq umr ko'rmaydi.

Makiavellining qo'shin, qo'llab-quvvatlov va qo'rquv haqidagi qarashlari bugungi davr siyosiy tizimlarida ham ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Farqi shundaki, XXI asrda kuch — faqat harbiy emas, balki texnologik va axborot maydonidagi ustunlik bilan o'lchanadi; qo'llab-quvvatlov — qonuniylikning markaziga aylangan; qo'rquv esa demokratik jamiyatlarda siyosatdan chiqarilgan, biroq avtoritar tizimlarda hanz strategik vosita sifatida qo'llanmoqda.

Zo'ravonlik siyosiy jarayonlar tarixida ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli tusga ega bo'lgan vositalardan biridir. Siyosiy hokimiyatning shakllanishi, mustahkamlanishi yoki saqlanishida zo'ravonlikning roli turli davr va siyosiy madaniyatlarda turlicha talqin qilingan. Siyosiy realizm asoschilaridan biri bo'lgan Nikkolo Makiavelli esa zo'ravonlikni davlat barqarorligini ta'minlashning muhim instrumentlaridan biri sifatida ko'rib, hokimiyatni mustahkamlash jarayonida undan ehtiyotkorlik bilan, ammo zarur hollarda qat'iy foydalanishni asoslab bergan. Makiavelli uchun zo'ravonlik siyosiy axloq me'yorlaridan mustaqil holda, pragmatik tarzda baholanishi kerak bo'lgan vosita hisoblanadi. Uning fikricha hokimiyat uchun tahdidlar mavjud bo'lgan sharoitda zo'ravonlik — hukmdorning o'zini himoya qilish vositasi; davlat ichidagi tartibsizlik yoki fitnani bartaraf etish uchun qisqa muddatli, lekin keskin choralar ba'zan muhim bo'lishi mumkin; zo'ravonlik muntazam emas, balki strategik, maqsadga yo'naltirilgan, vaqt jihatidan cheklangan bo'lishi kerak.

Makiavellining mashhur xulosasi shundan iboratki hukmdor zo'ravonlikni zarurat taqozo etganda qo'llashi, lekin keraksiz shafqatsizlikdan tiyilishi lozim.

Tarixiy tajriba zo'ravonlikning siyosiy vosita sifatida uch asosiy ko'rinishini ko'rsatadi:

1. Davlat zo'ravonligi — hukumatning tartibni saqlash yoki muxolifatni bostirish maqsadida qo'llagan kuch ishlatish choralaridir.

2. Inqilobiy zo‘ravonlik — siyosiy guruhlarning mavjud tuzumni ag‘darish maqsadidagi harakatlari.
3. Terroristik zo‘ravonlik — siyosiy maqsadga erishish uchun qo‘rqitish va beqarorlik yaratishga qaratilgan kuch ishlatish.

Ularning barchasi hokimiyat munosabatlarida kuchni qayta taqsimlash yoki uni mustahkamlash bilan bog‘liq.

XXI asrda siyosiy zo‘ravonlikning mazmuni o‘zgargan bo‘lsa-da, uning siyosatdagi o‘rni saqlanib qolgan. Biroq zamonaviy siyosiy tuzumlarda zo‘ravonlikni qo‘llash chegaralari xalqaro huquq, xalqaro tashkilotlar va global jamoatchilik nazorati bilan cheklangan.

Demokratik davlatlarda zo‘ravonlik faqat qonun doirasida, jamoat tartibini va xavfsizlikni ta‘minlash uchun qo‘llaniladi. Politsiya, sud va xavfsizlik organlari faoliyati qat‘iy me‘yorlar bilan boshqariladi. Siyosiy muxolifatga nisbatan zo‘ravonlik qo‘llanishi demokratik legitimlikni yo‘qotadi.

Avtoritar tizimlarda zo‘ravonlik ko‘pincha hokimiyatni saqlash vositasiga aylanadi. Siyosiy raqiblarni cheklash, norozilikni bostirish, jamoatchilikni qo‘rqitish uchun qo‘llanadi. Davlat zo‘ravonligi siyosiy barqarorlikning asosiy tayanchi sifatida talqin qilinadi.

Ammo bugungi siyosiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikka tayanadigan tizimlar uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlay olmaydi, aksincha, ichki qarama-qarshiliklarni kuchaytiradi.

Global maydonda zo‘ravonlikning zamonaviy shakllari quyidagilar bilan bog‘liq:

- Gibrid urushlar — axborot, kiberhujum, iqtisodiy bosim va harbiy kuch aralashmasi;
- Kiberzo‘ravonlik — davlatlararo raqamli infrastrukturaga hujumlar;
- Axborot urushi — ommaviy ongni manipulyatsiya qilish orqali siyosiy maqsadga erishish.

Bu yangi shakllar klassik harbiy zo‘ravonlikdan farqli o‘laroq, bevosita qurolsiz, lekin siyosiy tizimlarga katta zarar yetkazishi mumkin.

Siyosiy nazariya nuqtayi nazaridan zo‘ravonlikning muhim jihati — uning legitim yoki noqonuniy ekanligi. Max Veber ta‘kidlaganidek, davlat zo‘ravonlikni qo‘llashning yagona qonuniy monopoliyasiga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bu huquq quyidagi talablarga bo‘ysunadi, ya‘ni qonuniylik, maqsadga muvofiqlik, proporsionallik, inson huquqlariga hurmat. Shunday qilinmasa, zo‘ravonlik davlatni mustahkamlash emas, balki delegitimatsiya qilishga olib keladi.

Zo‘ravonlik tarixiy jihatdan siyosiy vosita sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, zamonaviy siyosiy madaniyat va xalqaro huquq uni keskin cheklab qo‘ydi. Makiavelli zo‘ravonlikni zarur strategik vosita sifatida talqin qilgan bo‘lsa, XXI asr siyosati unda faqat qonuniy, cheklangan va demokratik nazorat ostidagi shaklini legitim deb biladi. Shuning uchun zo‘ravonlik siyosiy barqarorlikning emas, aksincha beqarorlik va ishonchsizlikning manbaiga aylanishi mumkin.

Harbiy kuchlar davlat suverenitetining eng muhim tayanchlaridan biri bo‘lib kelgan. Siyosiy realizm asoschisi Nikkolo Makiavelli esa bu masalaga alohida urg‘u berib, armiyani ikki asosiy ko‘rinishga ajratadi: milliy (mahalliy) qo‘shinlar va yollanma kuchlar. Uning nazariyasida har bir qo‘shin turi hokimiyat barqarorligiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi va hukmdorning mustaqilligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Makiavellining fikricha, milliy qo‘shinlar mamlakatning o‘z fuqarolaridan tashkil topadi va ular o‘z yerini, o‘z davlatini himoya qilgani uchun eng sodiq, eng motivatsiyaga ega kuch hisoblanadi. Ularning ustunliklari-vatanparvarlik motivatsiyasi — asosiy turtki xalqning o‘z yashash makoni va mustaqilligini himoya qilishdir. Sadoqat darajasi yuqori — milliy qo‘shinlar hukmdorga emas, davlatga sodiq bo‘ladi. Barqarorlikni ta‘minlaydi — milliy qo‘shin siyosiy

tizimning ichki tayanchi sifatida ishlaydi. Xarajatlar adolatli — milliy qo‘shinlar davlatning doimiy harbiy tizimini shakllantiradi, shuning uchun yollanma kuchlar kabi moliyaviy bosim keltirmaydi.

Makiavelli milliy qo‘shinlarni hukmdorning haqiqiy kuchi deb ataydi. Uning fikricha “O‘z qudratiga ega bo‘lmagan hukmdor hech qachon mustaqil bo‘la olmaydi.”

Makiavelli yollanma qo‘shinlarni siyosiy beqarorlikning eng katta manbai sifatida ko‘radi. Ularning asosiy xususiyatlari pul uchun jang qiladi — yollanma askarlar manfaatga asoslangan, sodiqlik emas, pul bilan bog‘langan. Shuningdek, xiyonatga moyil — ular yuqori haq taklif qilgan har qanday tomonga o‘tib ketishi mumkin. Haqiqiy motivatsiya yo‘q — ular mag‘lubiyatda qochish ehtimoli yuqori, g‘alabada o‘z manfaatini ko‘zlaydi. Bundan tashqari, hukmdor uchun xavfli — yollanma qo‘shin o‘z buyurtmachisiga qarshi ham qo‘zg‘alishi mumkin.

Makiavelli yollanma qo‘shinlar haqida shunday degan: “Yollanma qo‘shinlar befoyda va xavfli: ular hokimiyatni mustahkamlashdan ko‘ra uni yemiradi.” Tarix ko‘p bor buni tasdiqlagan: Italiya shahar-davlatlaridagi kapitanlar (kondottiyerlar) ko‘pincha o‘z buyurtmachilarini sotgan yoki o‘zini hukmdor qilib ko‘tarishga urinib ko‘rgan.

Bugungi dunyo ham milliy va yollanma qo‘shinlar masalasini o‘z doirasida hal etadi. Demokratiyalarda milliy qo‘shinlar to‘liq davlat kafolatida shakllanadi va fuqarolik nazorati ostida bo‘ladi. Zamonaviy milliy qo‘shinlarning xususiyatlari shundaki, ular konstitutsiya bilan himoyalangan, harbiy xizmat tizimiga ega, harbiy-professional tayyorgarlik yuqori, parlament, hukumat va prezident nazorati ostida, xalq ishonchi va qo‘llab-quvvatlovi bilan mustahkamlanadi.

XXI asrda klassik yollanma qo‘shinlar o‘rnini xususiy harbiy kompaniyalar egallagan (masalan, Wagner, Blackwater). Ular tijorat asosida ishlaydi, davlatlar tomonidan maxsus operatsiyalar uchun yollanadi, yuridik maqomi ko‘p hollarda noaniq, siyosiy javobgarlikdan chetda turadi. Ba‘zan davlat boshqaruviga bosim vositasiga aylanadi. Bu kompaniyalar Makiavelli ogohlantirishlarini yana bir bor tasdiqlamoqda:

“Yollanma kuchlarga suyanish — davlat mustaqilligini boy berish bilan barobar.”

Milliy qo‘shinlar zamonaviy davlatlar uchun nafaqat mudofaa mexanizmi, balki siyosiy tizim barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omildir. Ular hududiy yaxlitlikni saqlaydi, ichki xavfsizlikni ta‘minlaydi, favqulodda vaziyatlarda jamiyat hayotini muhofaza qiladi, xalq va davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Milliy armiyaning professional va vatanparvar bo‘lishi — davlat mustahkamligining eng muhim kafolati.

Makiavellining milliy va yollanma qo‘shinlar haqidagi g‘oyalari bugungi siyosiy amaliyotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Milliy qo‘shin davlatni mustahkamlasa, yollanma kuchlar siyosiy beqarorlik va mustaqillikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. XXI asrda ham harbiy kuchning eng ishonchli modeli — milliy, professional, jamoatchilik nazoratidagi armiya hisoblanadi.

Makiavelli fikricha, hukmdor o‘zi nazorat qila oladigan omillardan samarali foydalanishi, nazorat qila olmaydigan omillarga esa moslashishi lozim. U strategiyani quyidagi elementlar orqali tasvirlaydi:

-Vaqtni to‘g‘ri tanlash (kairos): Qaror qachon qabul qilinishi ham qarorning o‘zi kabi muhim.

-Vaziyatni oldindan ko‘ra olish: hukmdor falokatni oldindan sezishi va unga tayyor bo‘lishi kerak.

-Daxldor kuchlarni muvozanatga keltirish: elita, xalq, qo‘shin, tashqi kuchlar o‘rtasidagi manfaatlar uyg‘unligi.

Uning strategik fikrlashi zamonaviy siyosatshunoslikda **realpolitek, geosiyosiy pragmatizm va davlat manfaatlari ustuvorligi** tamoyillari shaklida davom etmoqda.

Makiavelliga ko‘ra barqarorlik **xalqning qo‘llab-quvvatlashiga uzviy bog‘liqdir.**

Xalqning roziligi hokimiyatni legitim qiladi. Hokimning eng katta xatosi — xalqning noroziligini keltirib chiqarishdir. Hukmdorning siyosiy mahorati, jasorati, qaror qabul qilish qobiliyati — eng muhim kuchdir. Hamkorlikni ham, raqobatni ham manfaatga qarab belgilash zarur.

Bugungi siyosatga nazar tashlasak, Makiavellinging quyidagi tamoyillari dolzarbligini yo‘qotmagan, ya‘ni ko‘plab davlatlar milliy manfaatlarni asosiy mezon sifatida belgilaydi, **elita va jamiyat manfaatlarini muvozanatlash. Bu esa** siyosiy boshqaruvning eng nozik nuqtasi bo‘lib qolmoqda. **Xalq bilan aloqa va ishonchni saqlash esa** zamonaviy PR siyosati, axborot siyosati ham Makiavellinging “qo‘llab-quvvatlashni yo‘qotmaslik” g‘oyasidan kelib chiqadi. Shu ma‘noda, Makiavelli zamonaviy siyosatning ham nazariy asoschisi bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Machiavelli, N. “*Il Principe (Hukmdor)*”. – 1532.
2. Machiavelli, N. “*The Art of War*”. – 1521.
3. Weber, M. “*Politics as a Vocation*”. – 1919.
4. Skinner, Q. “*Machiavelli*”. Oxford University Press, 2019.
5. Strauss, L. “*Thoughts on Machiavelli*”. University of Chicago Press, 1958.
6. Mansfield, H. “*Machiavelli’s Virtue*”. University of Chicago Press, 1996.
7. Singer, P. W. *Corporate Warriors: “The Rise of the Privatized Military Industry”*. Cornell University Press, 2008.
8. Nye, Jr. “*Soft Power and Hard Power*”. – Harvard University Press, 2004.
9. Muqimjon Qirg‘izboyev “*Siyosatshunoslik*”.-Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2013
10. Avant, D. “The Privatization of Security and Its Implications”. *International Studies Review*, 2006.